

«TASDIQLANGAN»
"SAXOVAT BROYLER" AJ aksiyadorlari
umumiy yig'ilishining qarori bilan

«RO'YXATDAN O'TKAZILGAN»
O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar
milliy agentligi

Jamiyat muassisi:


Usmonov O.A.

Direktorning birinchi o'rinbosari:


Pak V.Yu.

"16" iyul 2025 y.

" 8 " sentabr 2025 y. P.1090-1-son



M.O'.

**"SAXOVAT BROYLER" AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYALARINING YANGI CHIQRILISHI TO'G'RISIDAGI QAROR»**

Identifikatsiya raqami berildi:	R U 1 0 1 P 1 0 9 0 T 3
---------------------------------	-------------------------

3 662 606 541 751 dona oddiy egasi yozilgan hujjatsiz aksiyalar.

Bir dona aksiyaning nominal qiymati 0,01 so'm.

Joylashtirish jamiyat muassislari o'rtasida yopiq obuna usulida amalga oshiriladi.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi birlamchi chiqarilishidir.

Aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror "SAXOVAT BROYLER" AJ muassislari Umumiy yig'ilishining 2025-yil "16" iyuldagi 1/2025-sonli Bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror "SAXOVAT BROYLER" AJ muassislari Umumiy yig'ilishining 2025-yil "16" iyuldagi 1/2025-sonli Bayonnomasi asosida qabul qilingan.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va yelektron pochta manzili:
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Piskent tumani, H. Olimjon ko'chasi, 1-uy.
Tel.: +998 55 900 90 09 / info@saxovat-broiler.uz / www.saxovat-broyler.uz

Emitentning rahbari:

Narzullayev D.S.

(F.I.O.)

(imzo)

Bosh buxgalter:

Rajapov S.B.

(F.I.O.)

(imzo)

Muhr



Qimmatli qog'ozlar chiqarishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo'yicha xizmat ko'rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: «FREEDOM FINANCE» MChJ XK

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi: 2025-yil 3-iyuldagi 1-son shartnoma

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.O. va imzosi:

Bosh Direktor:


Sobirov J.R.

(F.I.O.)

(imzo)

Muhr





1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli):	Oddiy
2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli:	Hujjatsiz.
3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm):	0,01 (bir tiyin) so'm.
4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona):	3 662 606 541 751 (uch trillion olti yuz oltmish ikki milliard olti yuz olti million besh yuz qirq bir ming yetti yuz ellik bir) dona.
5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm):	36 626 065 417 (o'ttiz olti milliard olti yuz yigirma olti million oltmish besh ming to'rt yuz o'n yetti) so'm 51 tiyin.
6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:	<p>Aksiyadorlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tegishli jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish; depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish; - jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish; - jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish; - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish; - jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish; - olgan dividendini erkin tasarruf etish; - qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish; - o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish; - o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish; - jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish; - qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega; <p>Aksiyadorlar qonunchilikka va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.</p>
7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:	<p>Jamiyat ustavida ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni sotib olish bo'yicha cheklovlar nazarda tutilmagan. Ushbu aksiyalar chiqarilishi "SAXOVAT BROYLER" mas'uliyati cheklangan jamiyati aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirilishi munosabati bilan chiqarish to'g'risidagi qaror asosida joylashtiriladi.</p> <p>Shu munosabat bilan aksiyalar "SAXOVAT BROYLER" AJ muassislari: "MEHR-SAODAT" MCHJ QK va USMONOV OTABEK ALIMJANOVICH o'rtasida yopiq obuna usulida joylashtiriladi.</p>
8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm):	36 626 065 417 (o'ttiz olti milliard olti yuz yigirma olti million oltmish besh ming to'rt yuz o'n yetti) so'm 51 tiyin.
9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):	Aksiyalar ilgari chiqarilmagan.

<p>10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):</p>	<p>Obligatsiyalar ilgari chiqarilmagan.</p>
<p>11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.</p>	
<p>11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna): (Yopiq obuna bo'lgan taqdirda, shuningdek aksiyalarni potensial oluvchilar doirasi ham ko'rsatiladi).</p>	<p>Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar jamiyat muassislari - "MEHR-SAODAT" MCHJ QK va USMONOV OTABEK ALIMJANOVICH o'rtasida yopiq obuna bo'yicha joylashtiriladi.</p>
<p>11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati: (Ko'rsatiladi: aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi va tugatish sanasi yoki aksiyalarni joylashtirish muddatini belgilash tartibi. Agar aksiyalarni joylashtirish muddati aksiyalarni chiqarilishi to'g'risidagi biron-bir axborotni oshkor qilish sanasini ko'rsatgan holda belgilansa, shuningdek bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham ko'rsatiladi.)</p>	<p>Aksiyalarni joylashtirish aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida amalga oshiriladi.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirishning boshlash sanasi: aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab birinchi kun.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirishning tugash sanasi: ushbu chiqarilishning oxirgi aksiyasi joylashtirilgan kun, lekin aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab bir oydan kechiktirmagan holda.</p>
<p>11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi: (Ko'rsatiladi: aksiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan bozorlar. Agar emitent tomonidan aksiyalarni joylashtirish emitentga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini (anderrayterlar) jalb qilish bilan amalga oshirilsa, har bir bunday shaxs yuzasidan qo'shimcha ravishda quyidagilar ko'rsatiladi: to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi; professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ; ushbu shaxsning asosiy vazifalari, agarda emitent va unga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada shu kabi shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan aksiyalarni oxirgisi tomonidan o'z hisobidan olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi.)</p>	<p>Aksiyalarni joylashtirish jamiyat muassislari - "MEHR-SAODAT" MCHJ QK va USMONOV OTABEK ALIMJANOVICH o'rtasida - qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushmagan bozorida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish anderrayterlarni jalb qilmasdan amalga oshiriladi.</p>
<p>11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:</p>	<p>Markaziy depozitariy to'g'risida ma'lumot: To'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati. Tashkiliy-huquqiy shakli: Aksiyadorlik jamiyati (AJ). Joylashgan joyi va pochta manzili: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy. Murojaat uchun telefonlar: +998 71 267-37-42, +998 71 267-35-92. Faks +998 71 267-37-42. Elektron pochta: info@uzcsd.uz Veb-sayt: www.uzcsd.uz (http://www.uzcsd.uz/)</p>

	<p>Investitsiya vositachisi to'g'risida ma'lumot: To'liq nomi: "FREEDOM FINANCE" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi. Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ). Joylashgan joyi va bog'lanish uchun ma'lumotlar: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 107B, Xalqaro biznes markazi, S blok, 12-qavat. Murojaat uchun telefonlar: +998 78 147-75-55. Elektron pochta: info@ffin.uz Litsenziya raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, shuningdek ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ: Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisining professional faoliyatini amalga oshirish uchun Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan 2018-yil 22-oktyabrda berilgan 1337-sonli litsenziya. Litsenziyaning amal qilish muddati cheklanmagan.</p>
<p>11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi: <i>(Joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilgan taqdirda quyidagilar ko'rsatiladi:</i> <i>bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarning ro'yxati tuzilgan sana (sanani belgilash tartibi);</i> <i>joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish ehtimoli to'g'risida bildirish tartibi;</i> <i>joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi).</i></p>	<p>Aksiyalarning ushbu chiqarilishi birlamchi bo'lganligi sababli, ularni joylashtirish jarayonida imtiyozli huquq nazarda tutilmagan.</p>
<p>11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi: <i>(aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi.</i> <i>Agar aksiyalarni joylashtirishda aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilsa, qo'shimcha ravishda bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarga baho yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi).</i></p>	<p>Aksiyalar nominal qiymati 0,01 (bir tiyin) so'm bo'yicha joylashtiriladi.</p>
<p>11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi: <i>(Aksiyalarni to'lash shartlari, tartibi, shu jumladan hisob-kitoblarning shakli, kredit tashkilotlarining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, ularning joylashgan joyi, aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko'chirilishi lozim bo'lgan hisobvaraqlarning bank rekvizitlari, to'lov shoxobchalarining manzili (naqd pul shaklida to'langanda).</i> <i>Aksiyalar pul bo'lmagan vositalar bilan to'langan taqdirda aksiyalar to'lanishi mumkin bo'lgan mol-mulk, to'lov shartlari bunday to'lov sharoitida rasmiylashtiriladigan hujjatlar (mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazo) bilan, shuningdek bunday mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun jalb qilinadigan baholovchi (baholovchilar) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:</i> <i>baholovchining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;</i></p>	<p>"SAXOVAT BROYLER" AJ mas'uliyati cheklangan jamiyatdan qayta tashkil etilishi munosabati bilan ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to'lovlar muassislar tomonidan kiritilgan ulushlarni ayirboshlash orqali amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Muassis "MEHR-SAODAT" MCHJ QKning (O'zbekiston Respublikasi) "SAXOVAT BROYLER" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav fondining ~99,987 foizini tashkil etuvchi, umumiy nominal qiymati 36 621 315 417,51 (o'ttiz olti milliard olti yuz yigirma bir million uch yuz o'n besh ming to'rt yuz o'n yetti so'm, ellik bir tiyin) bo'lgan ulushi ushbu chiqarilishdagi 3 662 131 541 751 (uch trillion olti yuz oltmish ikki milliard bir yuz o'ttiz bir million besh yuz qirq bir ming yetti yuz ellik bir) dona oddiy, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz aksiyaga ayirboshlanadi. - Muassis USMONOV OTABEK ALIMJANOVICHning (O'zbekiston Respublikasi)

<p><i>baholovchi tashkilotning professional jamoat birlashmasiga a'zoligi to'g'risidagi guvohnoma raqami va berilgan sanasi).</i></p>	<p>"SAXOVAT BROYLER" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav fondining ~0,013 foizini tashkil etuvchi, umumiy nominal qiymati 4 750 000 (to'rt million yetti yuz ellik ming so'm) bo'lgan ulushi ushbu chiqarilishdagi 475 000 000 (to'rt yuz yetmish besh million) dona oddiy, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz aksiyalarga ayirboshlanadi.</p>
<p>11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:</p>	<p>Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni Ichida muhim fakt to'g'risidagi ma'lumotlar (chiqarilish amalga oshmagan deb topilganligi, 28-sonli muhim fakt) Jamiyatning www.saxovat-broyler.uz korporativ veb-saytida va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb sayti – Yagona korporativ axborot portali www.openinfo.uz da e'lon qilinadi;</p> <p>Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida aksiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi.</p>
<p>12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:</p>	<p>Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur chiqarilish davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz) va jamiyatning rasmiy veb-saytida (www.saxovat-broyler.uz) e'lon qilinadi.</p> <p>Aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorning asl nusxasi bilan quyidagi manzilda tanishish mumkin: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Piskent tumani, H. Olimjon ko'chasi, 1-uy. Telefon raqami: +998 55 900 90 09.</p>
<p>13. Boshqa ma'lumotlar.</p>	<p>Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridan yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar:</p> <p>"SAXOVAT BROYLER" AJ Toshkent viloyati Piskent tumani Davlat xizmatlari markazida 23.01.2015 yilda 1944-son bilan ro'yxatga olingan STIR: 303 174 865 Davlat statistika qo'mitasi tomonidan berilgan kodlar: THSHT: 153 IFUT: 10111 DBIBT: 79994</p>

Прошито, пронумеровано и скреплено печатью
5 (Пять) листов

Директор
Нарзуллаев Д.С.

Главный бухгалтер
Ражапов С.Б.

«16» июля 2025 года

М.П.

